



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL

IYUN/6-SON, IV-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
IV-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

YASHIL ENERGIYA SEKTORIDA VENCHUR INVESTITSIYALARINING RIVOJLANISHI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON IMKONIYATLARI	12
Qarajanova Gulnoza Tolliyevna	
MILLIY KOMPANIYALARNI BAYNALMILALLASHUV BOSQICHLARI VA XALQARO KORPORATIV BIRLASHUVLAR (M&A) STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	19
Shokirov Shoxruxmirzo Baxtiyorjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGINI IQLIM VA EKOLOGIK O'ZGARISHLARGA MOSLASHTIRISHDA SMART TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	23
Mirzataev Salamat Muratbaevich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA MEVACHILIK KLASSTERLARINI TASHKIL ETISHNING ISHLAB CHIQRISH VA RENTABELLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	28
Tureev Azizbek Abatovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH XIZMATLARINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK MODELII.....	32
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	37
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich	
THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL INSURANCE MARKET AND THE LEVEL OF INCLUSIVENESS.....	43
Ravshanova Mohinur O'rolovna	
O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI AJ KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	51
Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	55
Qaraev Anvar Botirovich	
THE IMPACT OF LOYALTY PROGRAMS ON CUSTOMER RETENTION IN ONLINE COSMETICS: A MIXED-METHODS STUDY	61
Toirova Mubina	
IQLIM O'ZGARISHI VA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING JAHON MOLIYA BOZORLARIGA TA'SIRI.....	66
Qo'chqorova Muxlisaxon Ulug'bek qizi	
KICHIK BIZNES RIVOJLANISHIDA RAQAMLI PLATFORMALAR - ELEKTRON TIJORAT SAYTLARI, MARKETPLEYSLAR VA MOBIL ILOVALARNING O'RNI.....	73
Rizayeva Nilufar Oblakulovna	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDAGI IQTISODIY SAMARADORLIGI	79
Abdulla Mavlonov	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARI LOGISTIKASINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI BOZOR INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	82
Komekova Gulzira Sharbaevna	



МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К АГРЕГИРОВАНИЮ РАЗРОЗНЕННЫХ ДАННЫХ В ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ	87
Бекматов Акмал Курбонмахматович	
SUG'URTA TASHKIOTLARIDA MHXSGA O'TISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	93
Azamatova G. I.	
O'ZBEKISTON SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSIYALARNING XARAJAT-FOYDA TAHLILI	98
Omonov Olim Murodullayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	104
Isxakova Sarvar Ayubovna	
Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Isxakova Sarvar Ayubovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
"Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini professori

E-mail: isarvar@yandex.ru

Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
"Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini assistenti

E-mail: amriyevashaxzoda250@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Unda ta'lim tizimini raqamlashtirish, elektron ta'lim platformalari, masofaviy ta'lim, interaktiv pedagogik usullar hamda raqamli o'quv resurslarining keng imkoniyatlari va iqtisodiy afzalliklari yoritilgan. Tadqiqotda innovatsion ta'lim texnologiyalarining inson kapitali sifatini oshirish, mehnat unumdorligini yuksaltirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va raqamli transformatsiyani jadallashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy ahamiyati ochib berilgan. Mualliflar innovatsion ta'lim texnologiyalari xarajatlarni optimallashtirish, ta'lim sifati va kadrlar tayyorlash samaradorligini yanada oshirishning muhim omili ekanligini asoslaydilar.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, innovatsion ta'lim texnologiyalari, inson kapitali, raqamli transformatsiya, iqtisodiy samaradorlik, elektron ta'lim, masofaviy ta'lim, mehnat unumdorligi, intellektual salohiyat, ta'lim tizimi.

Аннотация. В статье исследуются вопросы экономической эффективности внедрения инновационных образовательных технологий в условиях цифровой экономики. Проанализированы процессы цифровизации системы образования, а также влияние инновационных технологий на повышение качества человеческого капитала, производительности труда и конкурентоспособности национальной экономики. Особое внимание уделено использованию электронных образовательных платформ, дистанционного обучения, интерактивных методов преподавания и цифровых образовательных ресурсов. Также рассмотрено значение реформ, проводимых в Республике Узбекистан в сфере цифровизации образования. Обосновано, что внедрение инновационных образовательных технологий способствует оптимизации затрат, повышению качества подготовки кадров и дальнейшему укреплению интеллектуального потенциала экономики.

Ключевые слова: цифровая экономика, инновационные образовательные технологии, человеческий капитал, цифровая трансформация, экономическая эффективность, электронное образование, дистанционное обучение, производительность труда, интеллектуальный потенциал, система образования.

Abstract. This article examines the economic efficiency of implementing innovative educational technologies in the context of the digital economy. The study highlights the digitalization of the education system and analyzes the positive impact of innovative technologies on the quality of human capital, labour productivity, and national competitiveness. Particular attention is paid to e-learning platforms, distance education, interactive teaching methods, and digital educational resources. The article also emphasizes the importance of ongoing reforms in Uzbekistan aimed at accelerating the digital transformation of education. The findings demonstrate that innovative educational technologies contribute to cost optimization, improvement of educational quality, enhancement of workforce training efficiency, and strengthening of the intellectual potential of the economy.

Keywords: digital economy, innovative educational technologies, human capital, digital transformation, economic efficiency, e-learning, distance education, labour productivity, intellectual potential, education system.



KIRISH

Jahon iqtisodiyotida kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim tizimining mazmuni, boshqaruvi va iqtisodiy natijalarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Zamonaviy iqtisodiy munosabatlarda bilim, axborot va innovatsiyalar nafaqat ishlab chiqarish omillari, balki barqaror taraqqiyotning asosiy resursi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli inson kapitalining sifati hamda ta'lim tizimining samaradorligi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va innovatsion rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda [1,2].

Raqamli iqtisodiyot zamonaviy texnologiyalarni puxta egallagan, mustaqil fikrlaydigan, kreativ yondashuvga ega va innovatsion yechimlar ishlab chiqishga qodir mutaxassislarni talab etadi. Bunday sharoitda ta'lim tizimiga ilg'or yondashuvlarni joriy etish, o'quv jarayonlarini raqamlashtirish, interaktiv metodlar va elektron o'quv resurslaridan samarali foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Masofaviy ta'lim, virtual laboratoriyalar, elektron kutubxonalar va zamonaviy o'quv platformalari ta'lim xizmatlari sifatini oshirish bilan bir qatorda, vaqt va moliyaviy resurslardan yanada oqilona foydalanish imkoniyatlarini yaratadi [3].

O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida izchil amalga oshirilmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini takomillashtirish hamda raqamli ko'nikmalarga ega kadrlarni tayyorlash masalalari muhim vazifalar sifatida belgilangan [4]. Shuningdek, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ta'lim sifatini yuksaltirish, yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va zamonaviy kadrlar tayyorlash ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilgan [5].

Maqolaning maqsadi raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligini ilmiy asoslash, mavjud imkoniyatlarni tahlil qilish hamda ta'lim tizimida raqamli transformatsiyani yanada chuqurlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayoni, predmeti sifatida esa ushbu jarayonning iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi tashkiliy, texnologik va institutsional jihatlari tanlangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot va ta'lim texnologiyalari bo'yicha ilmiy qarashlar bir necha yo'nalishda shakllangan. A. Abdullayev raqamli iqtisodiyot sharoitida zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyatini yoritib, elektron ta'lim vositalaridan samarali foydalanish ta'lim jarayonining moslashuvchanligi, qulayligi va iqtisodiy samaradorligini oshirishini ta'kidlaydi [1]. Ushbu yondashuvda raqamli texnologiyalar nafaqat texnik vosita, balki ta'lim xizmatlarini tashkil etishning innovatsion va samarali iqtisodiy mexanizmi sifatida talqin etiladi.

D. Bell postindustrial jamiyat konsepsiyasida bilim va axborotni jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi omili sifatida baholaydi [2]. M. Kastels esa axborot asri sharoitida tarmoqlashgan iqtisodiyot, kommunikatsion texnologiyalar va bilimlar almashinuvi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omili ekanligini asoslaydi [3]. Mazkur nazariy qarashlar zamonaviy ta'lim tizimida raqamli transformatsiyaning iqtisodiy mazmunini anglash va uning istiqbollarini belgilashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida ta'lim tizimini raqamlashtirish masalalari davlat dasturlari va strategik hujjatlar bilan uzviy bog'liq. PF–6079-son Farmonda¹ raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli infratuzilmani rivojlantirish hamda raqamli ko'nikmalarga ega kadrlar tayyorlash vazifalari belgilangan [4]. PF–60-son Farmonda² esa ta'lim sifatini yuksaltirish, innovatsion yondashuvlarni keng tatbiq etish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan [5].

So'nggi ilmiy tadqiqotlarda oliy ta'lim tizimi samaradorligini oshirish, ta'lim xizmatlari sifatini takomillashtirish hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Isxakova S. A. va Amriyeva Sh. Sh. oliy ta'lim tizimi samaradorligini oshirishda boshqaruv, sifat va innovatsion yondashuvlarning o'zaro uyg'unligini asoslab beradilar [6]. Ularning tadqiqotlari ta'lim muassasalari faoliyatini yanada samarali tashkil etishning ilmiy-amaliy jihatlari yoritadi.

Amriyeva Sh. Sh. oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari sifatini oshirishda raqamli vositalar, monitoring tizimlari hamda talabalar ehtiyojlarini hisobga olish mexanizmlarining muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi [7]. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini yanada oshirish va xizmatlar sifatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Sh. I. Artikova va K. D. Rajabova innovatsion yondashuvlar asosida o'quv jarayonini tashkil etish masalalarini tahlil qilib, pedagogik jarayonda interaktiv metodlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ta'lim natijadorligini sezilarli darajada oshirishini qayd etadilar [8]. Amriyeva Sh. Sh., Akobirova M. A. va Normuxammadova A. Sh. esa raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim xizmatlari tizimining rivojlanish istiqbollarini tahlil qilib, ta'lim xizmatlari sifatining mehnat bozori talablari, raqamli infratuzilma va boshqaruv samaradorligi bilan chambarchas bog'liqligini asoslaydilar [9].

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son <https://lex.uz/docs/-503095>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>



Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish ta'lim sifati, inson kapitali rivoji va iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlash jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, ilmiy umumlashtirish, mantiqiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv asosida innovatsion ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayoni, iqtisodiy resurslar, inson kapitali va mehnat bozori bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida o'rganildi.

Qiyosiy tahlil usuli yordamida innovatsion va an'anaviy ta'lim shakllarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri solishtirildi. Bunda ta'lim xarajatlari, o'quv resurslaridan foydalanish darajasi, ta'lim qamrovi, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi kommunikatsiya samaradorligi hamda raqamli platformalarning funksional imkoniyatlari asosiy mezonlar sifatida baholandi.

Ilmiy umumlashtirish usuli orqali mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarda ilgari surilgan nazariy qarashlar tizimlashtirildi va umumlashtirildi. Normativ-huquqiy hujjatlar tahlili asosida O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot va ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan ustuvor strategik vazifalar aniqlashtirildi. Shu asosda innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion ta'lim texnologiyalarining iqtisodiy samaradorligi bir necha muhim yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Avvalo, ular ta'lim xizmatlarini tashkil etish jarayonida resurslardan samarali foydalanish va xarajatlarni optimallashtirish imkonini yaratadi. An'anaviy ta'lim tizimida auditoriya fondi, bosma o'quv materiallari, transport va tashkiliy xarajatlar salmoqli ulushni tashkil etsa, raqamli ta'limda elektron resurslar, onlayn platformalar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari ushbu xarajatlardan yanada oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

Ikkinchi yo'nalish ta'lim qamrovining kengayishi bilan bog'liq. Elektron ta'lim platformalari va masofaviy o'qitish shakllari ta'lim olish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Ayniqsa, hududlarda yashovchi yoshlar, ishlayotgan talabalar hamda qayta tayyorlash kurslarida qatnashuvchi mutaxassislar uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Natijada ta'lim xizmatlaridan foydalanish darajasi ortib, inson kapitalini rivojlantirish imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi.

Uchinchi yo'nalish ta'lim sifati monitoringining takomillashuvi bilan tavsiflanadi. Raqamli platformalar orqali talabalar bilimni baholash, o'quv jarayonini kuzatish, davomat va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini tahlil qilish imkoniyatlari yanada kengayadi. Bu esa boshqaruv qarorlarini aniq va ishonchli ma'lumotlar asosida qabul qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'quv jarayonini takomillashtirish imkoniyatlari, resurslardan foydalanish samaradorligi va pedagogik faoliyat natijadorligini oshirishga oid muhim yo'nalishlarni tezkor aniqlash imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval
Innovatsion ta'lim texnologiyalarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri³

Yo'nalish	Qo'llaniladigan texnologiyalar	Iqtisodiy samarasi	Kutiladigan natija
Ta'lim jarayonini tashkil etish	Elektron ta'lim platformalari, LMS tizimlari	Bosma materiallar va tashkiliy xarajatlar optimallashtiriladi	O'quv jarayoni yanada tejamkor, samarali va moslashuvchan bo'ladi
Ta'lim qamrovini kengaytirish	Masofaviy ta'lim, onlayn kurslar	Ta'lim olish imkoniyatlari kengayadi, hududiy va vaqt omillari ta'siri kamayadi	Ta'lim xizmatlaridan foydalanuvchilar soni ortadi
Bilim sifati nazorat qilish	Raqamli baholash tizimlari, analitik platformalar	Monitoring jarayonlari samaradorligi oshadi, nazorat aniqligi kuchayadi	Ta'lim sifati bo'yicha tezkor va asoslangan qarorlar qabul qilinadi
Kadrlar tayyorlash	Virtual laboratoriyalar, interaktiv metodlar	Amaliy ko'nikmalarni shakllantirish samaradorligi yuksaladi	Mehnat bozori talablariga mos, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlanadi
Boshqaruv samaradorligi	Elektron hujjat aylanishi, raqamli boshqaruv tizimlari	Ma'muriy jarayonlar soddalashadi va tezkorligi oshadi	Resurslardan samarali va oqilona foydalanish darajasi kuchayadi

3 Manba: Mualliflar tomonidan ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va amaldagi islohotlar tahlili asosida tuzilgan.



Jadvaldan ko'rinib turibdiki, innovatsion ta'lim texnologiyalari ta'lim tizimining nafaqat texnologik yangilanishini, balki uning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Ular xarajatlarni optimallashtirish, boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, ta'lim qamrovini kengaytirish va kadrlar tayyorlash sifatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi samarali iqtisodiy mexanizm hisoblanadi. Bunda samaradorlik faqat moliyaviy tejamkorlik bilan cheklanmay, balki bilim sifati, raqamli kompetensiyalar va mehnat bozori talablariga moslashuvchanlikning ortishida ham o'z aksini topadi.

Ta'lim tizimini raqamlashtirishning yana bir muhim afzalligi uzluksiz ta'lim imkoniyatlarining kengayishida namoyon bo'ladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida texnologiyalar jadal rivojlanib borayotganligi sababli mutaxassislarining kasbiy bilim va ko'nikmalarini muntazam ravishda yangilab borish muhim ahamiyat kasb etadi. Elektron kurslar, onlayn treninglar va masofaviy malaka oshirish dasturlari ushbu ehtiyojni samarali qondirish imkonini beradi. Natijada mehnat unumdorligi ortib, iqtisodiyotning intellektual salohiyati yanada mustahkamlanadi.

Shu bilan birga, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish jarayonining samaradorligini yanada oshirish uchun ayrim yo'nalishlarni takomillashtirish muhim hisoblanadi. Jumladan, hududlarda internet infratuzilmasini rivojlantirish, pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyalarini yanada mustahkamlash hamda zamonaviy texnik vositalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish raqamli transformatsiya natijadorligini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish tizimlarini takomillashtirish ta'lim muhitining barqaror va ishonchli rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, innovatsion ta'lim texnologiyalarining iqtisodiy samaradorligi ularni texnologik vosita sifatida qo'llash bilan bir qatorda, boshqaruv, moliyalashtirish, kadrlar tayyorlash va sifat monitoringi jarayonlari bilan uyg'unlashtirish orqali yanada ortadi. Boshqacha aytganda, raqamli platformalardan samarali foydalanish o'qituvchilarning malakasi, o'quv kontentining sifati, boshqaruv qarorlarining asoslanganligi va mehnat bozori bilan samarali hamkorlik darajasiga bog'liq. Aynan shu omillarning uyg'unligi ta'lim tizimining barqaror rivojlanishi va iqtisodiy samaradorligini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish ta'lim tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quv resurslaridan samarali foydalanish, vaqt va moliyaviy resurslarni optimallashtirish, ta'lim qamrovini kengaytirish hamda ta'lim sifatini samarali boshqarish imkoniyatlarini yaratadi. Tahlil natijalari innovatsion ta'lim texnologiyalarining ijobiy ta'siri nafaqat ta'lim tizimi faoliyatida, balki milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida ham namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida yuqori malakali, raqamli kompetensiyalarga ega va innovatsion fikrlaydigan kadrlar shakllanadi. Bu esa mehnat unumdorligining ortishi, innovatsion faoliyatning faollashuvi hamda iqtisodiy raqobatbardoshlikning yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishda ta'lim muassasalarida raqamli infratuzilmani izchil modernizatsiya qilish, pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish, elektron ta'lim resurslari sifatini baholashning zamonaviy mezonlarini ishlab chiqish, ta'lim sifatini monitoring qilishda raqamli analitika vositalaridan keng foydalanish hamda axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish tizimlarini yanada mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish ta'lim tizimini modernizatsiya qilish bilan bir qatorda, iqtisodiy resurslardan samarali va oqilona foydalanish, inson kapitalini rivojlantirish hamda raqamli iqtisodiyot talablariga mos, yuqori malakali kadrlar tayyorlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Mazkur yondashuv ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlash, mamlakatning intellektual salohiyatini yuksaltirish va milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev A. Raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
2. Bell D. Postindustrial jamiyatning kelajak modeli. – Toshkent: Tafakkur, 2020.
3. Kastels M. Axborot asri: iqtisodiyot va jamiyat. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–6079-son Farmoni. – 2020-yil 5-oktabr. <https://lex.uz/docs/-5030957>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni. – 2022-yil 28-yanvar. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
6. Isxakova S. A., Amriyeva Sh. Sh. Increasing the Efficiency of the Higher Education System // Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2026. – Vol. 7, No. 1. – Pp. 324–331.



7. Amriyeva Sh. Sh. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash yo'llari // Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). – 2026. – № 14(1). – В. 2062–2070.

8. Артикова Ш. И., Ражабова К. Д. Инновационный подход в организации учебного процесса // Journal of Marketing, Business and Management. – 2024. – Т. 3, № 8. – С. 90–93.

9. Амриева Ш. Ш., Акобирова М. А., Нормухаммадова А. Ш. Современные направления развития системы услуг высшего образования в цифровой экономике // Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). – 2026. – № 14(1). – С. 369–376.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>